

## BUXORO VILOYATIDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI TAHLILI VA MARKETING MUAMMOLARI

**Jumayeva Zamira Bo'stonovna**

Osiyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari eksportining hozirgi holati, mavjud muammolar va marketing yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida viloyatning qishloq xo'jaligi salohiyati, eksport ko'rsatkichlari, logistika infratuzilmasi va marketing strategiyalari o'rganilgan. Empirik ma'lumotlar asosida Buxoro viloyati meva-sabzavot eksportini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali marketing strategiyalarini joriy etish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali eksport hajmini 1,5-2 barobarga oshirish imkoniyati mavjud.

**Kalit so'zlar:** Buxoro viloyati, meva-sabzavot eksporti, marketing muammolari, logistika, sovuq zanjir, agroklastar, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik.

### Аннотация

В данной статье проанализировано современное состояние экспорта плодоовощной продукции в Бухарской области, выявлены существующие проблемы и рассмотрены маркетинговые подходы к их решению. В ходе исследования изучены сельскохозяйственный потенциал региона, экспортные показатели, логистическая инфраструктура и применяемые маркетинговые стратегии. На основе эмпирических данных разработаны научно обоснованные рекомендации по развитию экспорта плодоовощной продукции Бухарской области. Согласно результатам исследования, внедрение эффективных маркетинговых стратегий и развитие логистической инфраструктуры позволяют увеличить объёмы экспорта в 1,5–2 раза.

**Ключевые слова:** Бухарская область, экспорт плодоовощной продукции, маркетинговые проблемы, логистика, холодовая цепь, агрокластер, экспортный потенциал, конкурентоспособность.

### Abstract

This article analyzes the current state of fruit and vegetable exports in Bukhara region, existing problems and marketing approaches. During the research, the agricultural potential of the region, export indicators, logistics infrastructure and marketing strategies were studied. The research results show that the export potential of the region is not fully utilized, cold chain infrastructure is insufficient and marketing activities are not systematically organized.

**Keywords:** Bukhara region, fruit and vegetable exports, marketing challenges, logistics, cold chain, agrocluster, export potential, competitiveness.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, yalpi ichki mahsulotning 24 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Mamlakatda meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirish ustuvor yo'nalish

sifatida belgilangan bo‘lib, 2025-yilda eksport hajmini 3,5 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. So‘nggi uch yil ichida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga katta hajmdagi yer resurslari yo‘naltirilgan: 250 ming gektar paxta va g‘alla maydoni oziq-ovqat yetishtirishga o‘tkazilgan, 160 ming gektar yangi bog‘ va tokzor barpo etilgan. Buxoro viloyati O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori bo‘lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda jami 23 ta agroklaster faoliyat yuritadi, shulardan 5 tasi meva-sabzavotchilik yo‘nalishida ixtisoslashgan. Viloyat bo‘yicha qishloq xo‘jaligi yerining umumiy maydoni 279 913 gektarni, umumiy ekin maydoni esa 204 731 gektarni tashkil etadi. Biroq, 2024-yil noyabr oyida prezident raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda Buxoro viloyatining eksporti o‘tgan yilgi ko‘rsatkichga yetmasligi alohida qayd etildi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, global iqtisodiy o‘zgarishlar va iqlim sharoitlarining yomonlashuvi fonida eksport masalasi O‘zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy daromad, balki iqtisodiy xavfsizlik masalasiga aylangan. Shu bilan birga, O‘zbekistondan meva va sabzavotlar eksportining 78-84 foizi atigi beshta davlat – Rossiya, Pokiston, Qozog‘iston, Xitoy va Afg‘onistonga to‘g‘ri kelmoqda, bu esa eksport geografiyasining diversifikatsiyalanmaganligi muammosini ko‘rsatadi. Tadqiqotning maqsadi – Buxoro viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari eksportining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud marketing muammolarini aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot vazifalari: viloyatning qishloq xo‘jaligi salohiyatini baholash; eksport ko‘rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish; marketing va logistika muammolarini aniqlash; samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: statistik tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT-tahlil, kontent-tahlil va ekspert baholash usullari. Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari, shuningdek xalqaro tashkilotlar (FAO, EastFruit) hisobotlari tashkil etdi. Statistik tahlil uchun 2019-2025 yillar oralig‘idagi eksport ma‘lumotlari o‘rganildi. O‘zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi va eksport qiluvchilar uyushmasi, Savdo-sanoat palatasi va Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ham tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi induktiv va deduktiv yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Marketing muammolarini aniqlash uchun eksport qiluvchi korxonalar faoliyati, logistika infratuzilmasi holati, narx siyosati va bozor kon'yunkturasi tahlil qilindi. Shuningdek, viloyatdagi agroklasterlar va fermer xo‘jaliklari faoliyati o‘rganildi. Tadqiqot cheklovlari sifatida viloyat bo‘yicha ayrim ko‘rsatkichlarning to‘liq mavjud emasligi va COVID-19 pandemiyasi ta‘sirini hisobga olish zarurati qayd etildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligi yerining umumiy maydoni 279 913 gektarni tashkil etadi, shundan 222 019 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekin yerlari

mavjud. Viloyatda 4883 ta fermer xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 948 tasi bog‘dorchilik-uzumchilik, 143 tasi bog‘dorchilik va polizchilik yo‘nalishida ixtisoslashgan. Viloyatda 23 ta agroklaster faoliyat yuritadi: 8 ta paxta-to‘qimachilik (ishlab chiqarish quvvati 331 800 tonna), 8 ta g‘allachilik (21 555 tonna), 5 ta meva-sabzavotchilik (20 300 tonna), 2 ta dorivor o‘simliklar klasteri. Ularga 104 206 gektar maydon ajratilgan. Shuningdek, viloyatda 1 ta agrologistika markazi faoliyat olib boradi.

2024-2025 yillar qish-bahor mavsumi uchun viloyatda qariyb 25 ming tonna oziq-ovqat zaxirasi jamg‘arish belgilangan, shundan 11 362 tonna kartoshka, 4 460 tonna piyoz, 6 214 tonna sabzi va 2 872 tonna guruch. Intensiv bog‘lar uchun 2 772 gektar maydon 196 ta fermer xo‘jaligiga ajratilgan (1-jadval).

**1-jadval.**

**Buxoro viloyatining qishloq xo‘jaligi salohiyati ko‘rsatkichlari, (2025-yil yanvar holatiga)<sup>1</sup>**

| Ko‘rsatkich                                  | Birlik | Qiymat  |
|--|--------|---------|
| Qishloq xo‘jaligi yerlarining umumiy maydoni | gektar | 279 913 |
| Sug‘oriladigan ekin yerlari                  | gektar | 222 019 |
| Fermer xo‘jaliklari soni                     | dona   | 4 883   |
| Bog‘dorchilik-uzumchilik fermer xo‘jaliklari | dona   | 948     |
| Agroklasterlar soni                          | dona   | 23      |
| Meva-sabzavotchilik klasterlari              | dona   | 5       |
| Meva-sabzavotchilik klasterlari quvvati      | tonna  | 20 300  |
| Intensiv bog‘lar maydoni                     | gektar | 2 772   |

2024-yil oxiriga kelib, O‘zbekistonning oziq-ovqat eksporti 2023-yilga nisbatan 1,2 barobarga o‘shib, 2 milliard dollardan oshdi. 2025-yilning birinchi yarmida sabzavot va mevalar eksporti qiymat jihatidan keskin o‘sgan. Yetti oylik natijalar bo‘yicha meva va sabzavotlar eksporti 1,1 milliard dollarga (1,3 million tonna) yetdi, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 35,2 foizga yuqori. Meva va sabzavotlarning asosiy eksport bozorlari Rossiya bo‘lib qolmoqda (44,7%), keyingi o‘rinlarda Qozog‘iston (14,1%), Pokiston (14,1%) va Afg‘oniston (7,3%) joylashgan. 2024-yilda O‘zbekistondan sarxil sabzavot va mevalarni import qiluvchi mamlakatlar soni 73 taga yetdi, biroq asosiy beshta davlat ulushi 83,8 foizni tashkil etadi. O‘zbekiston o‘rik eksporti bo‘yicha dunyoda 3-o‘ringa, gilos va shaftoli bo‘yicha 6-7-o‘ringa, mosh va boshqa dukkakli mahsulotlar bo‘yicha 10-o‘ringa chiqdi. Gilos 16 ta mamlakatga, uzum har hafta 3-4 tonna miqdorda AQSHga eksport qilinmoqda (2-jadval).

**2-jadval.**

**O‘zbekiston meva-sabzavot eksporti dinamikasi (2024-2025 yillar)<sup>2</sup>**

| Davr                 | Hajm (mln AQSH dollari) | O‘sish (foizda) | Hajm (ming tonna) |
|----------------------|-------------------------|-----------------|-------------------|
| 2024 yanvar-mart     | 219,8                   | +72,5           | 375,3             |
| 2024 yanvar-sentyabr | 922,8                   | +20,8           | 1 360             |
| 2024 yanvar-oktabr   | 1 040                   | +25,8           | 1 490             |

<sup>1</sup> Manba: Agro.uz, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi, 2024

<sup>2</sup> Manba: O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi, Gazeta.uz, 2024-2025

| Davr             | Hajm (mln AQSH dollari) | O'sish (foizda) | Hajm (ming tonna) |
|------------------|-------------------------|-----------------|-------------------|
| 2025 yanvar-iyun | 847,3                   | +40,5           | -                 |
| 2025 yanvar-iyul | 1 100                   | +35,2           | 1 300             |

Tadqiqot natijalariga ko'ra, meva-sabzavot eksportida quyidagi asosiy marketing muammolari sifatida viloyatda quyidagilarga ahamiyat qaratilishi lozim:

Birinchidan, logistika xarajatlarning yuqoriligi. O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi va eksport qiluvchilar uyushmasi raisi Sardor Abbosxonovning ta'kidlashicha, Germaniya yoki Gollandiyaga bitta furani olib borish 7000-9000 yevro, bu tonnaga chaqirganda 300-500 dollar, eng yaqin raqobatchi Turkiyada esa 100 dollardan kam.

Ikkinchidan, bozorga qaramlik xavfi. Mosh mahsulotining 90 foizdan yuqorisi Xitoy bozoriga eksport qilinadi. Shimolda va sharqda ikkita katta bozor (Rossiya va Xitoy) borligiga qaramay, bitta bozorga qaram bo'lib qolish jiddiy xavf hisoblanadi.

Uchinchidan, geosiyosiy to'siqlar. Rossiya sanksiyalarda, urush sharoitida, Eron ham sanksiyalarda, Turkmanistonda o'tish muammolari mavjud. Bu eksport yo'nalishlarini cheklaydi.

To'rtinchidan, sovuq zanjir infratuzilmasining yetishmasligi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yig'ishtirish, tashish va saqlashdagi yo'qotishlar hajmi 22-45 foizgacha, isrofgarchiliklar esa 12-18 foizni tashkil etadi. Viloyatda sovutgichlar bilan ta'minlanganlik darajasi atigi 3,7 foiz.

Beshinchidan, standartlashtirish va sertifikatlashtirish muammolari. Yevropa bozorlariga chiqishga to'sqinlik qilayotgan omillar qatorida mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash, pestitsidlar va nitratlar normasiga rioya qilish masalasi turibdi. GlobalGAP, HACCP kabi xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash talab etiladi (3-jadval).

### 3-jadval.

#### Meva-sabzavot eksportidagi asosiy muammolar tahlili<sup>1</sup>

| Muammo turi                  | Tavsif   | Ta'sir darajasi |
|------------------------------|--|-----------------|
| Logistika xarajatlari        | Yevropaga tashish 300-500 AQSH dollari /tonna, Turkiyada <100 AQSH dollari/tonna | Yuqori          |
| Bozor konsentratsiyasi       | 5 ta davlat ulushi 83,8 foiz, mosh 90 foiz Xitoyga                               | Yuqori          |
| Geosiyosiy to'siqlar         | Rossiya, Eron sanksiyalari, Turkmaniston tranziti                                | O'rta-Yuqori    |
| Sovuq zanjir infratuzilmasi  | Ta'minlanganlik 3,7 foiz, yo'qotishlar 22-45 foiz                                | Yuqori          |
| Standartlashtirish           | GlobalGAP, HACCP talablariga nomuvofiqlik  | O'rta           |
| Fermerlar bilan munosabatlar | Norasmiy shartnomalar, oldindan to'lov muammolari                                | O'rta           |
| Eskirgan navlar              | Eksportga yaroqsiz, past sifatli navlar  | O'rta           |

<sup>1</sup> Manba: Eksport qiluvchilar uyushmasi, Gazeta.uz, muallif tahlili, 2024-2025

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyatida meva-sabzavot eksportini rivojlantirish uchun kompleks marketing yondashuvini joriy etish zarur. Viloyat yetarli qishloq xo'jaligi salohiyatiga ega bo'lsa-da, eksport ko'rsatkichlari imkoniyatlardan past. Bunga bir qator sabablar mavjud.

Birinchidan, marketing strategiyasining yo'qligi asosiy muammolardan biridir. Viloyatda meva-sabzavot eksportiga ixtisoslashgan marketing bo'limi yoki markazi mavjud emas. Eksport qiluvchi korxonalar o'z-o'zicha faoliyat yuritadi va umumiy strategiya yo'q. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Chili, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar muvaffaqiyatga erishishda eksportga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini markazlashtirilgan tarzda joriy etgan.

Ikkinchidan, brending va mahsulot pozitsiyalash ishlari olib borilmayapti. 'Buxoro mevasi' yoki 'O'zbek qovuni' kabi mintaqaviy brendlar yaratilmagan. Xalqaro bozorlarda mahalliy mahsulotlar tanilmagan va raqobatchilardan ajralib turmaydi. Bu esa narx ustunligiga qaramlik keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, raqamli marketing vositalari qo'llanilmayapti. E-logistika platformasi mavjud bo'lsa-da, eksportyor va tashuvchi korxonalarining to'g'ridan to'g'ri ishlash imkoniyati yetarli darajada ishlatilmayapti. Onlayn savdo platformalari, raqamli marketing kanallari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi past.

To'rtinchidan, bozor tadqiqotlari muntazam olib borilmayapti. Tashqi bozor kon'yunkturasini bilmaslik raqobatbardoshlikni keskin kamaytiradi. Narx siyosati aniq emas, eksport shartnomalarini tuzish uchun tavsiya etilgan narxlar shartli xarakterga ega.

Beshinchidan, qo'shilgan qiymat zanjiri to'liq shakllanmagan. Mahsulotlarni saralash, qayta ishlash, qadoqlash va xaridorlarga yuborish jarayonlari muammoligicha qolmoqda. Zamonaviy qadoqlash ishlab chiqarish quvvatlari yetarli emas – 2025-yilda hududlarda jami 2,1 million tonna meva-sabzavot mahsulotlari uchun qadoqlar ishlab chiqarish bo'yicha 40,5 million dollar miqdoridagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan (4,5-jadvallar).

4-jadval.

**Buxoro viloyati meva-sabzavot eksportining SWOT-tahlili<sup>1</sup>**

| <b>Kuchli tomonlar (Strengths)</b>  | <b>Zaif tomonlar (Weaknesses)</b>   |
|---|---|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>- 279 913 gektar qishloq xo'jaligi yeri</li> <li>- 5 ta meva-sabzavotchilik klasteri</li> <li>- Qulay iqlim sharoitlari</li> <li>- Arzon ishchi kuchi</li> <li>- An'anaviy dehqonchilik madaniyati</li> </ul>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Sovuq zanjir ta'minoti 3,7 foiz</li> <li>- Marketing strategiyasining yo'qligi</li> <li>- Eskirgan navlar va texnologiyalar</li> <li>- Eksport ko'rsatkichlarining pastligi</li> <li>- Standartlarga nomuvofiqlik</li> </ul> |
| <b>Imkoniyatlar (Opportunities)</b>   | <b>Tahdidlar (Threats)</b>  |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>- Eksportni 3,5 mlrd AQSHdollariga yetkazish rejasi</li> <li>- Yevropa va Osiyo bozorlariga chiqish</li> <li>- Davlat subsidiyalari va qo'llab-quvvatlash</li> <li>- Xalqaro moliya institutlari kreditlari</li> <li>- Kooperatsiyalar rivojlanishi</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Geosiyosiy beqarorlik</li> <li>- Iqlim o'zgarishlari</li> <li>- Logistika xarajatlarining oshishi</li> <li>- Raqobatchilar (Turkiya, Eron)</li> <li>- Bozor kontsentratsiyasi xavfi</li> </ul>                               |

<sup>1</sup> Manba: muallif tomonidan tuzilgan

**5-jadval**

**Buxoro viloyati uchun marketing strategiyasi modeli<sup>1</sup>**

| Yo‘nalish                 | Chora-tadbirlar  | Kutilgan natija                |
|---------------------------|--|--------------------------------|
| Brending                  | “Buxoro mevasi” brendini yaratish, GI ro‘yxatdan o‘tkazish | Xalqaro tan olinish            |
| Bozor diversifikatsiyasi  | Yevropa, Fors ko‘rfazi, Janubi-sharqiy Osiyoga chiqish     | Xavfni kamaytirish             |
| Logistika optimizatsiyasi | Temiryo‘l blok-poyezdlari, multimodal tashish              | Xarajatlarni 30% kamaytirish   |
| Raqamli marketing         | E-logistika, B2B platformalar, ijtimoiy tarmoqlar          | Yangi mijozlar jalb qilish     |
| Sifat boshqaruvi          | GlobalGAP, HACCP sertifikatlarini olish                    | Premium bozorlarga kirish      |
| Sovuq zanjir              | Sovutgichli omborxonalar qurish, 100 ming tonna sig‘im     | Yo‘qotishlarni 50% kamaytirish |

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Buxoro viloyati meva-sabzavot eksporti bo‘yicha sezilarli salohiyatga ega bo‘lsa-da, bu salohiyatdan to‘liq foydalanilmayapti. Viloyatda 279 913 gektar qishloq xo‘jaligi yeri, 5 ta meva-sabzavotchilik klasteri mavjud, biroq eksport ko‘rsatkichlari o‘tgan yilgi darajaga ham yetmayapti.

2. Asosiy marketing muammolari qatoriga logistika xarajatlarining yuqoriligi (Yevropaga 300-500 \$/tonna), bozor kontsentratsiyasi (5 ta davlat ulushi 83,8%), sovuq zanjir infratuzilmasining yetishmasligi (ta‘minlanganlik 3,7%), standartlashtirish va sertifikatlashtirish muammolari kiradi.

3. Viloyatda marketing strategiyasi mavjud emas, branding ishlari olib borilmayapti, raqamli marketing vositalari qo‘llanilmayapti. Bu esa eksport ko‘rsatkichlarining pastligiga olib kelmoqda.

4. Geosiyosiy vaziyat (Rossiya sanksiyalari, Eron muammolari, Turkmaniston tranziti) eksport yo‘nalishlarini cheklayapti va yangi bozorlarni izlash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, viloyat darajasida meva-sabzavot eksportini marketing jihatdan boshqarish uchun maxsus bo‘lim yoki markaz tashkil etish zarur. Bu markaz bozor tadqiqotlari, branding, reklama va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish vazifalarini bajarishi lozim.

Ikkinchidan, 'Buxoro mevasi' mintaqaviy brendini yaratish va xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu brendni rivojlantirishga mahalliy va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish, raqamli marketing kanallari orqali targ‘ib qilish kiradi.

Uchinchidan, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, Yevropa Ittifoqi, Fors ko‘rfazi va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga eksportni kengaytirish lozim. Buning

<sup>1</sup> Manba: muallif tomonidan tuzilgan

uchun GlobalGAP va boshqa xalqaro standartlar talablariga muvofiqlikni ta'minlash zarur.

To'rtinchidan, logistika xarajatlarini kamaytirish uchun temiryo'l blok-poyezdlari yo'nalishlarini tashkil etish, multimodal tashish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Toshkentdan Polsha yoki Litva chegarasigacha muntazam temiryo'l yo'nalishini tashkil etish eksport samaradorligini sezilarli oshiradi.

Beshinchidan, viloyatda sovuq zanjir infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Sovutgichli omborxonalar qurish, saralash va qadoqlash quvvatlarini oshirish orqali mahsulot yo'qotishlarini 22-45 foizdan 10-15 foizga kamaytirish mumkin.

Kelgusi tadqiqotlar viloyatdagi alohida meva-sabzavot turlarining eksport salohiyatini batafsil o'rganishga, shuningdek marketing strategiyalarining samaradorligini empirik baholashga qaratilishi maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. Qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari. 2024-2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Tashqi savdo aylanmasi ma'lumotlari. 2024-2025.
3. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti. Meva-sabzavotlar eksportining geografik diversifikatsiya indeksi tahlili. 2024.
4. O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi va eksport qiluvchilar uyushmasi. Eksportni rivojlantirish bo'yicha takliflar. 2025.
5. FAO. Global Food Losses and Food Waste. Rome, 2023.
6. EastFruit. Uzbekistan Fruit and Vegetable Market Analysis. 2024.
7. Xasanov, S. O'zbekistonda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari. Review.uz, 2024.
8. Agro.uz. Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi ma'lumotlari. 2024.
9. Gazeta.uz. O'zbekiston tashqi savdosi statistikasi. 2024-2025.
10. Kun.uz. Meva-sabzavot eksporti yangiliklari. 2024-2025.
11. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson.
12. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
13. World Bank. Uzbekistan Agricultural Sector Review. 2023.
14. UNCTAD. Trade and Development Report. Geneva, 2024.
15. ITC. Export Potential Assessment Methodology. Geneva, 2023.
16. USDA. Uzbekistan: Agricultural Sector Overview. 2024.
17. ADB. Uzbekistan Country Partnership Strategy. Manila, 2023.
18. JICA. Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri yaratishni rivojlantirish loyihasi hisoboti. 2024.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, yanvar, 1-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**